



*hokimligi  
maktabgacha va maktab ta'lifi  
boshqarmasi*  
*maktabgacha va  
maktab ta'lifi bo'limi tasarrufidagi  
—umumiy o'rta ta'lim maktabi  
to'garak rahbari*

*ning  
texnologiya fanidan qiz bolalarga  
9-sinf bo'sh o'zlashtiruvchi  
o'quvchilar uchun*

**TO'GARAK  
HUJJATLARI**

## To‘garak a’zolari haqida ma’lumot

## O‘tkazilgan xona

“ \_\_\_\_\_ ” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari

To‘garak rahbari \_\_\_\_\_

“ \_\_\_\_\_ ” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari

To‘garak rahbari \_\_\_\_\_

**“TASDIQLAYMAN”**  
**MMIBDO’**

**2024-2025-o‘quv yili bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun tuzilgan**  
**“ ” nomli to‘garagining**  
**ISH REJASI**

<b>Nº</b>	<b>Yillik ish reja mavzulari</b>	<b>Soat</b>	<b>Sana</b>	<b>Izoh</b>
1.	Xalq hunarmandlari tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar	1		
2.	Eksport va ichki bozor	1		
3.	Hunarmandchilikda foydalananiladigan nodir materiallar va asbob-uskunalar	1		
4.	Takrorlash	1		
5.	Ayollar shimi ni bichish va tikish	1		
6.	Andaza tayyorlash	1		
7.	Shimning orqa qismini chizish	1		
8.	Modella shadirish	1		
9.	Takrorlash	1		
10.	Mustaqil amaliy topshiriq	1		
11.	Takrorlash	1		
12.	Jahon miqyosida tikuvchilik mashinasozligi	1		
13.	Kir yuvish mashinasi. Kir yuvish mashinasining turlari, tuzilishi, ishlash prinsipi, foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalari	1		
14.	Takrorlash	1		
15.	Ko‘ylakni zamonaviy uslubda bichish va tikish	1		
16.	Takrorlash	1		
17.	Karving san’ati	1		
18.	«Bahor» salati	1		
19.	Dizayn komponentlari asosida turli buyumlarning loyiha variantlarini tayyorlash usullari	1		
20.	Mustaqil ijodiy loyiha ishi	1		
21.	Takrorlash	1		
22.	Mustaxkamlash	1		
23.	Mahsulotni tayyorlash bosqichi.	1		
24.	Loyiha taqdimotini tayyorlash va o‘tkazish	1		
25.	Kasb tanlashga yo‘llash texnologiyasi	1		
26.	<b>Bahorda tayyorlanadigan salatlar.</b>	1		
27.	Takrorlash	1		
28.	Kasbga doir shaxsiy reja tuzish.	1		
29.	Takrorlash	1		
30.	Tanlangan kasb-hunarga doir ma’lumotlar to‘plash va tahlil qilish	1		
31.	Takrorlash	1		
32.	Shaxsiy kasb rejasi	1		
33.	Takrorlash	1		
34.	«Men tanlagan kasb» ijodiy loyihasini tayyorlash	1		

Sana: " " 20 -yil. Sinflar: \_\_\_\_\_ To'garak rahbari: \_\_\_\_\_

**Mavzu: Xalq hunarmandlari tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar  
Mashg'ulotning maqsadi:**

**Ta'limiyl maqsad:** egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlagan holda, turli materiallardan chiroyli buyumlar, mexanizmlar asosida harakatlanuvchi sodda jihozlar, robototexnika elementlari yordamida esa aqlli texnika va texnologiyalarni o'z qo'llari bilan yasashni o'rgatish, ishlarni raqamli texnika va texnologiyalar asosida tashkil etish hamda boshqarish bo'yicha dastlabki bilim va tushunchalarni shakllantirish.

**Tarbiyaviy maqsad:** o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, unga erishish uchun nimalarga e'tibor berish kerakligini aniqlab olishi, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalana olish, ishlarni raqamli texnika va texnologiyalar asosida tashkil etish hamda boshqarish, sodda ko'rinishdagi buyumlar yasash yoki ularni loyihalashtirish bo'yicha hayotiy kompetensiyalarga ega bo'lish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** mashaqqatlarni yengishga bo'lgan qattiq ishonch, mustahkam iroda, tirishqoqlik, g'ayratshioat, o'z qobiliyatini namoyon eta olish kabi xislatlarga ega bo'lish, kelajak hayotlarida muhim o'rin egallaydigan amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishida, o'zlar qiziqqan kasb-hunar turlaridan birini to'g'ri tanlashi hamda mustaqil fikrlashga qodir bo'lgan, hozirgi zamon bozor sharoitlarida ishlarni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

**O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

**Kommunikativ kompetensiya:**

mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javobberish.

o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qila olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:**

inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini bilish va unga amal qilish.

**Mashg'ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan'aviy, ananaviy.

**Mashg'ulot uslubi:** tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

**Mashg'ulot jahozi:** mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

**Mashg'ulotning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Yurtimizda hunarmandchilik qadimdan taraqqiy topgan bo'lib, turli bejirim buyumlar yaratish, kundalik hayotda asqatadigan jihozlar tayyorlash, shu orqali o'z mehnati bilan odamlarga naf keltirish qadriyat darajasiga ko'tarilgan. O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq hunarmandchiligi san'ati turlari boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. Zaminimiz qatlamlarini qazish ishlari natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insoning buyumga badiiy ishlov berishi asosida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan bo'lib, asrlar osha hozirgacha uzlusiz davom etib kelmoqda. Madaniy merosimiz hisoblanmish noyob zeb-ziynatlar, har xil ro'zg'or anjomlari, ip va ipakdan tikilgan matolar, loy va ganchdan yasalgan sopol hamda chinni idishlar, kulolchilik san'atiga mansub bo'lgan buyumlar barchasi xalqimizning moddiy va madaniy merosi bo'lib kelmoqda. Hunarmandchilik tobora takomillashib borib, turli ixtisosliklarga ajralib ketgan. Masalan, kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, miskarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nchilik, zargarlik, zardo'zlik va hokazo. Tasviriy san'atga falsafiy yondashish natijasida shartlilik, uslublashtirish, ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish taraqqiy etgan. Jumladan, hozirda jahonga mashhur me'morchilik yodgorliklarimizda qo'llanilgan ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, toshtaroshlikning bir-biri bilan ajoyib darajada uyg'unlashgani buning yaqqol isbotidir.



**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:**

1. Qaysi hunar turlariga qiziqasiz?

2. Eksport uchun ishlab chiqariladigan mahsulotlar qayerlarda sotilishi mumkin?

**V. Mashg'ulotni yakunlash:** to'garak a'zolarini yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

Sana: " " 20 -yil. Sinflar: \_\_\_\_\_ To'garak rahbari: \_\_\_\_\_

### Mavzu: Eksport va ichki bozor

#### Mashg'ulotning maqsadi:

**Ta'limiylar maqsad:** egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlagan holda, turli materiallardan chiroyli buyumlar, mexanizmlar asosida harakatlanuvchi sodda jihozlar, robototexnika elementlari yordamida esa aqlli texnika va texnologiyalarni o'z qo'llari bilan yasashni o'rgatish, ishni raqamli texnika va texnologiyalar asosida tashkil etish hamda boshqarish bo'yicha dastlabki bilim va tushunchalarni shakllantirish.

**Tarbiyaviy maqsad:** o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, unga erishish uchun nimalarga e'tibor berish kerakligini aniqlab olishi, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalana olish, ishlarni raqamli texnika va texnologiyalar asosida tashkil etish hamda boshqarish, sodda ko'rinishdagi buyumlar yasash yoki ularni loyihalashtirish bo'yicha hayotiy kompetensiyalarga ega bo'lish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** mashaqqatlarni yengishga bo'lgan qattiq ishonch, mustahkam iroda, tirishqoqlik, g'ayratshioat, o'z qobiliyatini namoyon eta olish kabi xislatlarga ega bo'lish, kelajak hayotlarida muhim o'rin egallaydigan amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishida, o'zlarini qiziqqan kasb-hunar turlaridan birini to'g'ri tanlashi hamda mustaqil fikrlashga qodir bo'lgan, hozirgi zamon bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

#### O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

##### Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta orqali xabar jo'natish) foydalana olish.

##### O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish; guruhlarda ishlashda ma'suliyatni o'ziga olish, lider bo'la olish.

**Mashg'ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan'aviy, ananaviy.

**Mashg'ulot uslubi:** tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

**Mashg'ulot metodi:** guruhlarda ishlash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman", "muammo va yechim" shu kabi metodlar.

**Mashg'ulot jahozi:** mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

##### Mashg'ulotning borishi:

I. Tashkiliy qismi:

a) Salomlashish.    b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash:

a) Savol – javob o'tkazish.    b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:



Bugungi kunda O'zbekistonda hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan buyumlar va mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) yo'naliishlari 34 taga yetdi. Hozirda ular ichki va tashqi bozor uchun mahsulotlar ishlab chiqarishmoqda. Bu mahsulotlar o'zining sifati, badiiy jihatdan yuksakligi, tabiiyligi va milliy o'zligimiz, tarixiy an'analarimizni o'zida uyg'unlashtirgani bilan ham ahamiyatlidir. Hunarmandchilik mahsulotlarini chetga eksport qilish va hunarmandlar faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida 2018-yilda dunyoning 20 dan ortiq davlati (Germaniya, Shveysariya, Rossiya, Italiya, Angliya, Koreya, Malayziya, Ozarbayjon, Latviya, Finlandiya, Hindiston, Fransiya, Gretsya, Turkmaniston, Eron, AQSH, Ukraina, Turkiya, Xitoy, Ispaniya)da 113 ta ko'rgazma va yarmarka o'tkazildi. Marg'ilonlik hunarmandlarimiz eng qadimgi matolarimizdan banoras va adreslarni unutilib ketgan «kudin» usulida ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydilar. Buyuk Sohibqiron Amir Temur davrida sipohlarning tagiga to'shalgan gilam farg'onalik hunarmandlar tomonidan qayta to'qila boshlandi. Bundan 100 yil ilgari ipakdan to'qilgan «G'ajari bo'g'jama» Boysun hunarmandlari tomonidan qayta tiklandi. Shaharlar rivoji buyurtma bilan hunarmandchilik mahsulotlari tayyorlash va bozorga hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning jadal o'sishi bilan uzviy bog'liq. Natijada hunarmandchilik mahsulotlari tovarga aylandi, tovar ayirboshlash uchun ishlab chiqarildi. Davr taqozosi bilan hunarmandchilikning yangi-yangi turlari vujudga keldi. Hunarmandlar ham turli mahsulotlar tayyorlash bo'yicha ixtisoslasha bordilar. Shaharlardagi mahallalar hunarmandlarning kasb-koriga qarab shakllangan (masalan, XX asrning boshlarida Toshkentda ko'nchilar, kulollar, egarchilar, beshikchilar, o'qchilar, kosiblar mahallalari bo'lgan).

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:** Hunarmandlar tomonidan ichki va tashqi bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning qaysi biri davlatga ko'proq mablag' keltiradi, deb o'ylaysiz?

**V. Mashg'ulotni yakunlash:** to'garak a'zolarini yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

Sana: " " 20 -yil. Sinflar: \_\_\_\_\_ To'garak rahbari: \_\_\_\_\_

### Mavzu: Hunarmandchilikda foydalananiladigan nodir materiallar va asbob-uskunalar

#### Mashg'ulotning maqsadi:

**Ta'limiylar maqsad:** egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlagan holda, turli materiallardan chiroyli buyumlar, mexanizmlar asosida harakatlanuvchi sodda jihozlar, robototexnika elementlari yordamida esa aqlli texnika va texnologiyalarni o'z qo'llari bilan yasashni o'rgatish, ishni raqamli texnika va texnologiyalar asosida tashkil etish hamda boshqarish bo'yicha dastlabki bilim va tushunchalarni shakllantirish.

**Tarbiyaviy maqsad:** o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, unga erishish uchun nimalarga e'tibor berish kerakligini aniqlab olishi, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalana olish, ishlarni raqamli texnika va texnologiyalar asosida tashkil etish hamda boshqarish, sodda ko'rinishdagi buyumlar yasash yoki ularni loyihalashtirish bo'yicha hayotiy kompetensiyalarga ega bo'lish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** mashaqqatlarni yengishga bo'lgan qattiq ishonch, mustahkam iroda, tirishqoqlik, g'ayratshioat, o'z qobiliyatini namoyon eta olish kabi xislatlarga ega bo'lish, keljak hayotlarida muhim o'rinni egallaydigan amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishida, o'zlarini qiziqqan kasb-hunar turlaridan birini to'g'ri tanlashi hamda mustaqil fikrlashga qodir bo'lgan, hozirgi zamon bozor sharoitlarida ishni izchil tashkil eta oladigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash.

#### O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

##### O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish; guruhlarda ishlashda ma'suliyatni o'ziga olish, lider bo'la olish.

##### Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish

##### hamda foydalanish kompetensiyasi:

kundalik faoliyatda turli formula, model, chizmalarini o'qiy olish va foydalana olish.

**Mashg'ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan'aviy, ananaviy.

**Mashg'ulot uslubi:** tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

**Mashg'ulot metodi:** guruhlarda ishslash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman", "muammo va yechim" shu kabi metodlar.

**Mashg'ulot jahozi:** mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

##### Mashg'ulotning borishi:

**I. Tashkiliy qismi:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

##### III. Yangi mavzu bayoni:

Zardo'zlik XIX–XX asr bosHLarida zardo'zlikda chetdan keltirilgan turli xil fabrika materiallaridan tashqari, mahalliy jaydari gazlamalardan ham foydalananilgan. Erkaklar choponlari chetdan keltirilgan baxmal birishim, ya'ni eng a'lo navli barxitlardan tikiladi. Baxmali farangideb atalgan rus barxitidan ham keng foydalilanigan. Bu gazlama G'arbiy Yevropadan Rossiya orqali keltirilgani uchun baxmali zagraniShdeb yuritilgan (ruscha zagraniChniyo'sidan olingan). Barxitlar g'oyat rang-barang tusda bo'lishiga qaramasdan, kishilarga qizil, binafsha, yashil va ko'k rangdagilari ko'proq yoqqan. Qizil va binafsha rangdagi barxitlar ayollar va bolalar kiyimlari uchun qo'llaniladi. Sof ipak barxitdan tashqari, baxmali musidegan silliq, yarmi ipak barxit erkaklar choponidan boshqa barcha buyumlar uchun ishlatiladi. Yarim shoyi jaydari olacha gazlama deyarli barcha buyumlar tayyorlashda, ayniqsa, zardo'zlikda ishlatiladi. Undan asosan uy-ro'zg'or buyumlari – so'zana, yostiq jildi, joynamozlar jildi tikiladi. Turli navdagagi simli iplar zardo'zlik uchun asosiy xomashyo hisoblanadi. Qadimdan Misr hamda Bobilda zar va kumush ip tayyorlash texnologiyasi ma'lum bo'lgan. O'rama zar simlar dastlab Dehli shahrida ishlab chiqarilgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoroga zar iplar faqat Moskvadan, keyinchalik Angliyadan, hozirda Yaponiyadan keltirilyapti. G'oyat momiq zar tolalar buxorolik zardo'zlar tilida kalyobatun nomi bilan mashhur bo'lib, u goh zar, goh kumush ip o'rnida qo'llanilgan. Zardo'zlikda ishlatiladigan jihozlar u qadar ko'p emas.


##### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Zardo'zlikda buyumlar qanday gazlamalardan tayyorlanadi?

2. Zardo'zlikda qanday iplar ishlatiladi?

**V. Mashg'ulotni yakunlash:** to'garak a'zolarini yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.



37-rasm. Gilam to'qish dastgohi va ish qurollari.

**veb-saytimiz: Zokirjon.com**

*Zokirjon.com veb-sayti orqali o‘zingiz uchun kerakli ma’lumotlarni yuklab oling.*

*+99890-530-00-68 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan nza4567 izlab telegramga murojaat qilishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi.*

*Hujjat word variant doc formatda beriladi.*

*40 listdan iborat qiz bolalarga texnologiya fanidan 9-sinf bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga 34 soatli to‘garakni to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.*




**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

To‘lov uchun: **HUMO 9860230104973329**

**Plastik egasi Nabihev Zokirjon**



## **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng

yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga

joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**

*Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo‘ling!*  
*Bizda maktablar uchun quydagи hujjatlар mavjud*

- 1. 1-11-Sinflar uchun sinf soati ish reja va konspektlari rus va o‘zbek maktablar uchun**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to‘garak hujjatlari rus va o‘zbek maktablar uchun**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari rus va o‘zbek maktablar uchun**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari rus va o‘zbek maktablar uchun**
- 5. Ustama hujjatlari rus va o‘zbek maktablar uchun**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar rus va o‘zbek maktablar uchun**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar) rus va o‘zbek maktablar uchun**
- 8. Maktab ish hujjatlari rus va o‘zbek maktablar uchun**
- 9. Direktor ish hujjatlari rus va o‘zbek maktablar uchun**
- 10. MMIBDO‘ ish hujjatlari rus va o‘zbek maktablar uchun**
- 11. O‘IBDO‘ ish hujjatlari rus va o‘zbek maktablar uchun**
- 12. Psixolog hujjatlari rus va o‘zbek maktablar uchun**
- 13. Xotin-qizlar qo‘mitasi ish hujjatlari rus va o‘zbek maktablar uchun**
- 14. Kutubxona mudirasi ish hujjatlari rus va o‘zbek maktablar uchun**
- 15. Besh tashabbus hujjatlari rus va o‘zbek maktablar uchun**
- 16. Ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar rus va o‘zbek maktablar uchun**